



Xilola AYUPOVA,
Andijon davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: hilolaayupova088@gmail.com

DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida

THE CONNECTION BETWEEN TONGUE TWISTERS AND THE PROVERB GENRE

Annotation

Samples of folk art, like all works of art, are divided into specific types, groups, and genres based on their structure, place of performance, appearance, function, degree of dependence on music, and ideological and artistic features. This division and classification into different types, groups, and genres is important not only for performers but also for listeners and researchers of the phenomenon, its nature, formation, gradual development of folklore samples, the emergence of certain types and genres, their refinement, interactions with changes, and relocation. It allows for the observation and study of processes such as the onset of crises. For this reason, folk genres evolve and improve in relation to each other, and over time may transition or converge in nature.

Key words: ideological and artistic feature, type category, gradual development, perfected form, crisis, folklore.

СВЯЗЬ СКОРОГОВОРОК С ЖАНРОМ ПОСЛОВИЦ

Аннотация

Образцы народного творчества, как и все произведения искусства, делятся на конкретные виды, группы и жанры по их структуре, месту исполнения, внешнему виду, функции, степени зависимости от музыки, идейно-художественным особенностям. Деление и классификация на разные виды, группы и жанры важны не только для исполнителей, но и для слушателей, исследователей явления, природы, формирования, постепенного развития фольклорных образцов, возникновения того или иного типа и жанра, совершенствования, столкновения с изменениями, сменой мест; и позволяет наблюдать и изучать такие процессы, как возникновение кризиса. По этой причине фольклорные жанры развиваются и совершенствуются по отношению друг к другу, а с течением времени могут переходить или сближаться друг к другу по своей природе.

Ключевые слова: идейно-художественная особенность, видовой тип, постепенное развитие, совершенная форма, кризис, фольклор.

TEZ AYTISHLARNING MAQOL JANRI BILAN BOG'LIQLIGI

Аннотация

Xalq og'zaki ijodi namunalari ham barcha san'at asarlari kabi tuzilishi, ijro o'rni, ko'rinishi, bajaradigan vazifasi, musiqaqa bog'liqlik darajasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra muayyan tur, guruh va janrlarga bo'lib qaraladi. Bu xil tur, guruh va janrlarga ajratish, tasniflash nafaqat ijrochilar, balki tinglovchilar, hodisani tadqiq etuvchilar uchun ahamiyatli bo'lib, folklor namunalarning tabiati, shakllanishi, tadrijiy taraqqiyoti, u yoki bu tur va janrlarning paydo bo'lishi, mukammal shaklga kelishi, o'zgarishlarga uchrashi, o'rin almashinishi va inqirozga yuz tutishi kabi jarayonlarni kuzatish, o'rganish imkonini beradi. Shu sababli, folklor janrlari bir-biriga bog'liq holda taraqqiy etadi, sayqallanadi, shuningdek, vaqtlar o'tishi bilan bir-biriga o'tishi yoki tabiati jihatidan bir-biriga yaqinlashishi mumkin.

Kalit so'zlar: g'oyaviy-badiiy xususiyat, muayyan tur, tadrijiy taraqqiyot, mukammal shakl, inqiroz, folklor.

Kirish. O'zbek xalqi yosh avlod tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratib kelgan. O'zbek oilasida boshqa xalqlar kabi ertak aytib bermay farzand o'stirgan oilani tasavvur qilish qiyin. Bola tarbiyalash ona xalqimiz bilan birga dunyoga kelgan bo'lib, u bilan birga yashamoqda. Mehnatkash xalq doimo o'z zuriyodlarini jismoniy, aqliy jihatdan sog'lom, mehnatsevar, o'ziga xos didga ega bo'lgan inson qilib tarbiyalashni o'z oldiga asosiy vazifa qilib belgilab olgan. Mehnatkash xalq uzoq yillar davomida bola tarbiyasiga oid ko'plab ijobiy tajribalarga erishdi. Ularning oqilona donishmandligi bilan to'plagan bilimlari, avvalo, bizga boy xalq og'zaki ijodi: maqol, matal, masal, ertak, latifa, lof, ashula, doston bir avloddan ikkinchi avlodga o'tib kelayotgan eng yaxshi adabiy an'analar orqali yetib keldi. A.M.Gorkiy bu haqida "Xalq og'zaki ijodini bilmasdan turib, mehnatkash xalqning haqiqiy tarixini bilish mumkin emas"-degan edi. Dunyo miqyosida xalqlar yozma adabiyot vujudga kelmasidan oldin mazmun jihatdan boy va rang-barang bo'lgan og'zaki ijod namunalari ko'z qorachig'iday asrab, avaylab kelishgan.

Mazkur makolada tez aytishlar bilan bog'liq janrlararo munosabat masalasiga, xususan, tez aytishlarning maqollar bilan o'zaro aloqasi, bir-biriga o'tish holatlari haqida fikr yuritamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Folklor janrlarining o'zaro ta'siri va munosabati o'ta darajada keng qamrovli masala bo'lib, u folkloridagi ijodiy jarayonning tarixiy-tadrijiy masalalarini nisbatan to'laroq va chuqurroq yoritishga imkon

beradi. Chunki folklor janrlarining o'zaro ta'siri va munosabati bir tomondan, ob'ektiv-dinamik jarayon ekanligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan u ayrim sub'ektiv jihatlar, ya'ni xalq ijodkorlarining voqelikni aks ettirishdagi: a) evolyutsion holatlar; b) barqaror an'anaviylik bag'ridagi individual mahorati bilan belgilanadi. Shuning uchun ham folklorshunos B. Sarimsoqov shunday deydi: "Jamiyat bosqichining ma'lum bir bosqichida vujudga kelgan ma'lum bir janr jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlari talab va ehtiyojlariga moslashib boradi va nihoyat, yangi bir hosilaga aylanadi"[1]. Kichik janrlarning tabiati va g'oyaviy-estetik jihatdan bir-biriga yaqinlashish hodisasini olimning yuqoridagi fikrlari bilan izohlash mumkin. Haqiqatan ham, qadimda tez aytishlar kattalar repertuarida mavjud bo'lib, ularning dastlabki funksiyasi hazil-mutoyiba, ko'ngil ko'tarishga asoslangan bo'lsa, bolalar repertuariga o'tgandan keyin bolalarning istak va ehtiyojlaridan kelib chiqib, tez aytishlarning tabiatan topishmoq, maqol va sanamalarga yaqin "yangi hosila"lari paydo bo'la boshladi [2].

Xalq og'zaki ijodi asarlarining jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanishi, diffuzion hamda transformatsion qonununiyatlar asosida muayyan o'zgarishlarga uchrashi kabi hodisalar ularning janriy xususiyatlari borasida turli xil munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Bu holat hozirgi kunimizda ham davom etmoqda.

"Folklorning maqol, matal, topishmoq, aforizm, hikmatli so'zlar kabi kichik janrlari, – deb yozadi B.Soatov, – semantik va

mantiqiy jihatdan bir-biriga yaqin turadi, ko'pincha bir-birlariga o'tib turadi[3]. Biz B.Soatov aytib o'tgan folklorning kichik janrlari qatorida tez aytishni ham qayd etib qo'yish juda o'rinni, deb o'ylaymiz. Sababi tez aytish janri ham o'zining kompozitsion tuzilishi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari kabi bir qator o'xshash jihatlar mavjud. Ushbu fikrlarimizni folklorshunos B.Sarimsoqov va B.Soatovlarning yuqoridagi gaplari ham tasdiqlaydi. Ammo aksariyat tadqiqotlarda nima uchundir tez aytish janri kichik janrlar qatorida qayd etilmagan. Bu holni folklorshunosligimizda hozirga qadar tez aytish janri maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lmaganligi, bu borada yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilmaganligi sabablari bilan izohlash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotchi A.T.Aqjolova ham hozirgi kundagi qozoq bolalar she'riyatida tez aytishning bir qator turlarini, xususan, qo'shiq, sanama, masxaralama, son, maqol-matal, ertak, yolg'on tez aytishlar ko'payganini qayd etib o'tgan [4].

O'zbek xalqida esa maqollarga xos xususiyatlarni aks ettiradigan tez aytish elementlari ham uchraydi. Bu haqda I.Madiyarov ham fikr yuritib, quyidagi misol orqali buni izohlaydi:

“Oltin olmay olqish olgan odam – odam [5].

Ushbu o'zbek xalq tez aytishida maqollarga xos bo'lgan mazmunlilik va didaktik xususiyatlar aks etgan. Shu bois, bu kabi tez aytishlar maqol sifatida qo'llanilishi mumkin va ularni maqol-tez aytishlar deyish mumkin. Ayni paytda mazmunan mazkur tez aytishga o'xshash maqolning mavjudligi fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi: Oltin olmay, odob ol, Odob oltin emasmi [6].

Zolimga zorlanma zinhor[7] misolida ham maqolga xos element – nasihat berish xususiyati mavjud. Quyidagi tez aytish haqida ham shunday fikrni aytish mumkin:

Dangalchi dangal gapirar,

Dangasa chang chiqarar [7].

Demak, o'zbek xalq tez aytishlari xazinasida maqol-tez aytishlar ham mavjud bo'lib, ular axloqiy-didaktik ahamiyati, odobga yo'naltirilganligi, pand-nasihat berish xususiyatlari bilan boshqa tez aytishlardan ajralib turadi.

Olmaxon, olmadan olmani ol![8], Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq[9] kabi an'anaviy tez aytishlardan ajralib turgan yuqoridagi singari maqol-tez aytishlarning mavjudligi xalqimizning naqadar dono xalq ekanligidan nishona. Sababi shu birgina sodda o'yin ichida ham yoshlarga ta'lim-tarbiya beradigan, o'git bo'ladigan, o'rnatib bo'ladigan tez aytishlar orqali bolani tarbiya qilmoqda.

Quyidagi rus xalq tez aytishida ham maqollardagi kabi ajdodlarimizning hayotiy tajribalari asosida chiqarilgan xulosalari nasihatimiz shaklda bayon etilgan:

Jenya s Jannoy podrujilas.

Drujba s Jannoy ne slojilas.

Chtbodyi jit s druzuyami drujno,

Objat druzey ne nujno [10]. (Jenya Janna bilan do'stlashdi. Janna bilan do'stlik ish bermadi. Do'stlar bilan birga yashash uchun, Do'stlarni xafa qilish kerak emas.)

Ushbu misolda Jena ismli bolakayning Janna ismli bola bilan do'st tutingani, lekin uni dilini og'ritib qo'ygani haqida so'z ketadi. Bu maqol-tez aytish orqali bolalarga do'st bo'lish uchun doim to'g'riso'z bo'lish, do'stning diliga ozor bermaslik kabi fazilatlar o'rgatilgan. «Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim», «Do'sting bilan obod uying» kabi maqollarning mazmuni ushbu tez aytishda o'z ifodasini topgan.

Tahlil va natijalar. E'tibor beradigan bo'lsak, ruslarda ham, o'zbeklarda ham yaratilgan maqol-tez aytishlarda insonni yaxshilikka yetaklovchi, bolaga tanbeh, beruvchi, o'rnatib bo'luvchi mavzular juda ko'p uchraydi. Bundan tashqari xalqlarning shug'ullanadigan mashg'ulotlari ham aks etgan maqol-tez aytishlar ham uchraydiki, bu haqda I.Madiyarov qozoq xalqlarida uchraydigan quyidagi tez aytishni misol keltiradi: «Turkiy xalqlar orasida qozoqlar azaldan yilqichilik bilan shug'ullanib keladi. Ot qozoq xalqi uchun juda muqaddas hayvon sanaladi. Shuning uchun ham qozoq tez aytishlari orasida ot bilan bog'liq namunalar ko'pchilikni tashkil etadi. Quyidagi she'riy maqol tez aytish ham bunga misol bo'ladi:

Shabyсты at, shalyis shappas,

Shalyis shapsa,alyis shappas» [11].

Xuddi shunga o'xshasha misollar rus tez aytishlarida ham uchraydi:

Prorub rubili – rybku lovili[12] (muzni teshib baliq tutdik).

Bilamizki, baliq ovlash va u orqali savdo-sotiq qilish - ruslarning asosiy mashg'ulotlaridan biri. Yuqoridagi tez aytish shu kasb bilan shug'ullanadigan oila farzandlaridan birining tilidan aytilgan deyish mumkin. Bundan tashqari qisqichbaqa ham asosiy ozuqa turi hisoblanadi. Shuning uchun u bilan bog'liq turli tez aytishlar ham mavjud:

V ozere – karp, a v more krab.

Biz yuqorida A.T.Aqjolovanning hozirgi qozoq bolalar she'riyatidagi ijodkorlar tomonidan yaratilgan tez aytish turlari haqidagi fikrlarini keltirgan edik. Xuddi shunday tez aytishlar rus ijodkorlari tomonidan ham yaratilgan bo'lib, uning bir nechta namunalarini keltirib o'tishni ma'qul topdik:

Molodoy – igrushki,

A storoy – podushki.(bolalarga - o'yinchoqlar, qarilarga-yostiqlar)

Yoki:

Vesna krasna svetami,

A osen – snopami[13]. (gullar bilan bahor go'zal, kuz esa dastalar bilan)

Yuqoridagi misollar rus o'qituvchisi hamda logoped I.G.Suxin tomonidan yaratilgan bo'lib, birinchi misolda yoshlarning o'yinga qiziqishini, ko'ngli yosh, istagan narsaga erisha olishini ta'riflab, yosh o'tgandan keyin esa tez charchash, faqat dam olib yotganini chiroyli satrlarga bezagan. Keyingi tez aytishni oladigan bo'lsak, bahor gullarning ochilgani bilan, ularning shirin ifori bilan bizni rom etadi, kuz esa daraxtlar bargi sarg'ayib yerni to'n singari qoplab olishi bilan insonni o'ziga tortadi. Bu majoziy ma'noda bo'lib, “har kim o'z o'rni bilishi, hamma narsa o'z vaqtida bo'lishi” kabi insoniy vazifalarni uqtiradi.

Professor B.Sarimsoqovning yozishicha, “...barcha xalqlarda bevosita fasllarning to'rtligi tan olinadi, ammo mehnat jarayoniga qarab bu to'rt fasl ayrim xalqlarda ikki qismga ajratiladi va ular yoz, qish kabi ikki qutbiy fasl sifatida qabul qilinadi” [14]. Shu bilan birga, olim qadimda o'zbeklarda ham dehqonchilik va chorvachilik faoliyati bilan bog'liq ikki xil yil hisobi bo'lganligini, ular dehqon va cho'pon yilidan iboratligini, dehqon yili yigirma ikkinchi, cho'pon yili esa o'n oltinchi martdan boshlanishi haqidagi ma'lumotlarni ham qayd etib o'tgan. Demak, ushbu qadimiy tez aytish turkiy xalqlarning qadimiy yil fasllariga bog'liq bo'lib, unda ishni, ayniqsa, dehqonchilikni erta bahorda boshlash kerakligi, belgilangan vaqtdan keyin, ya'ni ekin ekish vaqti o'tib ketgandan so'ng qilingan ishning hech qanday foydasi yo'qligi, aksincha, u zararga ishlashi haqidagi falsafiy mazmun anglashiladi.

O'zbek maqol tez aytishlaridan yana quyidagilarni ham keltirishimiz mumkin:

Bir boshqoq don – bir savat non

Yana:

Bir ko'rgan –bilish,

Ikki ko'rgan – tanish.

Yoki:

Yaxshiga yaqinlashganning yuzi yorug'

Yaxshining yo'li yaxshi[15].

Bunga o'xshash, ya'ni o'zining xarakteriga yo'naltirilgan tez aytishlar borki, ularni bemalol maqol-tez aytishlar deyish mumkin.Yana bir e'tiborli jihati shundaki, biz tez aytish va maqollar borasidagi kuzatishlarimizga asoslanib, aksincha, bemalol tez aytish o'rnida foydalanish mumkin bo'lgan ba'zi bir xalq maqollarining ham mavjudligining guvohi bo'ldik. Bizning bunday deyishimizga asosli sabablar bor, albatta. Jumladan, bunday maqollarda tez aytishlarga xos bo'lgan bir necha xususiyatlar: talaffuzda yanglishib ketish mumkin bo'lgan ohangdosh so'z va iboralar, qofiyadosh so'zlardan tarkib topgan jumlarlar ko'proq qo'llanadi. Shuningdek, tez aytishlarda faol ishtirok etadigan alliteratsiya san'atiga asoslangan xalq maqollari aksariyat hollarda tez aytish sifatida qo'llanadi. Masalan:

Birikkan kuch – kuch,

Birikmagan kuch – puch[16].

Yoki:

Boy boygа boqar,
Soy soygа oqar.
Ushbu maqollarda ham aytilishi bir-biriga yaqin, ohangdosh, “b”, “s”, “k” tovushlari alliteratsiyasiga asoslangan, ijrochining chalg'ish ehtimolini ko'paytiradigan, tez talaffuzda o'rin almashib ketishi mumkin bo'lgan jumlar ko'p uchraydi.

Gul dasta-dasta,
Gul bermagan - nokasta.

Yana:
Ko'ra-ko'ra ko'z pishar,
Qila-qila qo'l pishar.

Ayrim maqollarning tez aytish xususiyatlarini o'zida saqlash hodisasi tinglovchilarga o'sha maqol zamiridagi purhikmat ma'noni anglatibgina qolmasdan, xotirani mustahkamlashga, tilning ravon bo'lishiga, har bir so'zga ma'suliyat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Masalan:

Yuzta «siz-biz»dan, bitta «jiz-biz» yaxshi.
Yana:

Gapirgandan gapirmagan yaxshiroq,
Gapiruvdim tegdi boshimga tayoq.

Yana:
Ilib-ilib yoz bo'lar,
Sovub-sovub qish bo'lar[17].

Ushbu maqollar ham tez aytishlar kabi juda tez aytilsa, kulgili holatlar yuz berishi mumkin, bu esa ijrochiga matndagi so'zlarni ravon aytishga urinish mas'uliyatini yuklaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganimizda, o'zbek, rus tez aytishlari va xalq maqollari semantik va mantiqiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, ular orasida maqol-tez aytishlar mavjud.

Dono xalqimiz maqol, tez aytishlar orqali ularning barchasida xalq hayotini, uning o'zligini namoyon etuvchi xususiyatlarni, ruhiyat, orzu-intilishlarni aks ettiribgina qolmay, badiiy-yestetik prinsiplarni, donishmandlikni, shu bilan birga nutqimizni charxlash, talaffuzimizni go'zallashtirish, kelajak avlodga o'g'it aytish va ularga tarbiya berish kabi ma'suliyatli vazifalarni ham ado etishga intilganlar.

ADABIYOTLAR

1. Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси / Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 7-китоб. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: «Фан», 1981. – Б. 101.
2. И.Б.Мадияров. Ўзбек ва қорақалпоқ тез айтишлари типологияси. Дисс. Т.-2021, ст.88
3. Соатов Б. Паремнологик жанрларнинг ўзаро муносабатлари масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1998. 3-сон. – Б.36.
4. Акжолова А.Т. Жаңылтпаштардың тәрбиелік мәні және жанрлық ерекшеліктері. Абай атындағы ҚазҰПУ-дың Хабаршысы, «Бастауыш мектеп және дене мәдениеті» сериясы, № 2 (33), 2012 ж. – Б. 46.
5. Болалар учун тез айтишлар. Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Аввалбоева И. – Тошкент: Юрист-медиа маркази, 2019. – Б. 31.
6. Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: Мирзаев Т., Мусақулов А., Саримсоқов Б. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 161.
7. Болалар учун тез айтишлар. Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Аввалбоева И. – Тошкент: Юрист-медиа маркази, 2019. – Б. 63-73
8. Айтувчи: Шодмонов Ёқубжон. 1967 йилда туғилган. Андижон вилояти, Марҳамат тумани, Баликчилик қишлоғи. Ёзиб олди: Инамжан Мадияров. Ёзиб олинди: 2019 йил июнь.
9. Айтувчи: Қаҳҳоров Лочинбек. 1959 йилда туғилган. Андижон вилояти, Марҳамат тумани, Бирлашган маҳалла фуқаролар йиғини. Ёзиб олди: Инамжан Мадияров. Ёзиб олинди: 2019 йил июнь.
10. Собянина А.А. Картотека скороговорок для развития речи. Москва – 2000, ст.3
11. Жаңылтпаштар. Қўраст.: Өбуова М., Сатаев Р. – Алматы. «Өнер» баспасы, 2015, – Б. 56.
12. Копанева О.В. Скороговорки. Сборник. С.Ю.С.»Синяя птица». Томск-2018, ст.12
13. Сухин И.Г. Веселые скороговорки для «непослушных» звуков. Ярославль: Академия развития, 2006, ст.145-149
14. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 43.
15. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Нега шундай деймиз: ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. Т.-адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 44-бет.
16. Бердиёров Х, Расулов Р. Ўзбек тилининг паремнологик луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 113.
17. Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: Мирзаев Т., Мусақулов А., Саримсоқов Б. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 190.